

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti

“Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish” kafedrası

**Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti
60840100- Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim
yo‘nalishi
3-bosqich 310-guruh talabalari uchun**

“Veterinariya ishini tashkil etish, iqtisodi va qonunchiligi” fanidan

**“Hayvonlarni identifikatsiya qilish tartibi”
mavzusidagi amaliy mashg‘ulot darsi bo‘yicha**

Ochiq dars ishlanmasi

Samarqand – 2024

Tuzuvchi:

Rustamov B.S

“Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish” kafedrası assistenti v.f.f.d.

Taqrizchilar:

Isayev J.M

“Veterinariya ilmiy tadqiqot” Gelmintologiya laboratoriyasi mudiri, v.f.f.d

Tayloqov T.I

SamDVMCHBU huzuridagi Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi direktori dotsent v.f.d

**“Hayvonlarni identifikatsiya qilish tartibi” mavzusidagi
amaliy mashg‘ulot darsining o‘qitish texnologiyasi.**

Vaqt: 2 soat	<i>Talabalar soni: 26 nafar</i>
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Amaliy mashg‘ulot
O‘quv mashg‘ulotining rejasi	1. Hayvonlarni identifikatsiya qilish tartibi 2. Hayvonlarni identifikatsiya qilish 3. Identifikatsiya qilingan hayvonlarga veterinariya pasportini rasmiylashtirish
<i>Darsning maqsadi:</i> Identifikatsiya raqamini saqlovchi quloq birkalari, jetonlar turlari va me‘yorlari to‘g‘risida talabalarga umumiy tushuncha berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Hayvonlarni identifikatsiya qilish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar harfli kodlari tushuntirish; - Umumiy profilaktik tadbirlarni tashkillashtirishga baho berish; - Identifikatsiya ishlarini tashkillashtirish.	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> Talabalar: - Hayvonlarni identifikatsiya qilish tadbirlari to‘g‘risida tushuncha oladilar, Identifikatsiya qilingan hayvonlarga veterinariya pasportini rasmiylashtirish to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni bilish kabi bilimlarga ega bo‘ladilar.
<i>Ta’lim usullari</i>	Diologik yondoshuv, kichik guruhlarda ishlash, aqliy xujum, pinbord
<i>Ta’limni shakllantirish shakli</i>	Jamoaviy guruhli
<i>Ta’lim vositalari</i>	Ma’ruza mavzusi bo‘yicha dars ishlanmasi, teleproyektor, kompyuter, tarqatma materiallar, jadvallar, ishlanmalar.
<i>Ta’lim berish usullari</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki so‘rov: tezkor – so‘rov.

Amaliy mashg'ulotning texnologik haritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1 – bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. Salomlashish, davomatni aniqlash, talabalar darsga tayyorgarligini tekshirish. 1.2. Mavzu mohiyati, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	Eshitadi, yozib oladi.
2 – bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. (Aqliy xujum metodi 1-ilova) 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda mashg'ulotning qisqacha bayonini tushuntirib beradi. (Klaster metodidan foydalangan holda 2-ilova) 2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi. 2.4. O'qituvchi identifikatsiya qilishni tushuntiradi. 2.5. O'qituvchi talabalarni mavzuni tushunganlik darajasini aniqlaydi.	2.1. Eshitadi. Navbat bilan mavzularni aytadi. O'ylaydi, javob beradi. 2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi.
3 –bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1. Mavzuni yakun qiladi, talabalar savollariga javob beradi. 3.2. Talabalarni mavzuni tushunganlik darajasini aniqlaydi; 3.3. Uyda bajarish uchun topshiriq beradi.	Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar.

O'quv elementlari: veterinariya pasporti, hujjat shakllari, jadvallar.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar: Hayvonlarni identifikatsiya qilish, veterinariya pasportini rasmiylashtirish, identifikatsiya raqami, birkalari, jetonlar.


1-ilova

Aqliy xujum metodi

- | |
|---|
| <ol style="list-style-type: none">1. identifikatsiya bu nima?2. veterinariya pasportini rasmiylashtirish nimalarga bog'liq?3. yuqumli kasalliklarni oldini olishning qanday usullarini bilasiz? |
|---|

2-ilova

Klaster metodi



3-ilova

“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH”

Kichik guruhlarda ishlash talabalarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan auditoriyada o'rganishga imkoni tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.



HAYVONLARNI IDENTIFIKATSIYA QILISH TARTIBI

2-soat

O‘quv elementlari:

1. Hayvonlarni identifikatsiya qilish tartibi
2. Hayvonlarni identifikatsiya qilish
3. Identifikatsiya qilingan hayvonlarga veterinariya pasportini rasmiylashtirish

Hayvonlarni identifikatsiya qilish tartibi

Hayvonlarni identifikatsiya qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 sentyabrdagi “Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni hisobga olish, hisobdan chiqarish va saqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 748-son qarori va uning ilovasi bilan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi.

Mazkur qarorga asosan hayvonlarni identifikatsiya qilish ishlarini tashkil etish, shu jumladan, yagona elektron axborot tizimini joriy qilish, tuman va shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limlarini axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta‘minlash, hayvonlarni identifikatsiya qilish ishlariga jalb qilinadigan xodimlarni o‘qitish bilan bog‘liq xarajatlar:

hayvonlarning egalaridan identifikatsiya qilish xizmatlari uchun undiriladigan to‘lovlar;

O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasining Veterinariya va chorvachilik xizmatini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;

xalqaro tashkilotlar va xorijiy hukumatlar moliya institutlarining grantlari va kredit mablag‘lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilishi belgilab qo‘yilgan.

Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni hisobga olish, hisobdan chiqarish va saqlash tartibi to‘g‘risidagi **nizomda** quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

veterinariya pasporti – hayvonga berilgan identifikatsiya raqamiga muvofiq rasmiylashtirilgan, hayvon egasini belgilovchi, hayvonlarning kasalliklarga qarshi profilaktikasi va ularni davolash ishlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar qayd etib boriladigan, hayvonning yashash davri davomida saqlanadigan hujjat;

davlat veterinariya xizmatining vakili – tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limining uchastka veterinariya vrachi;

identifikatsiya – birkalash, tavro bosish (tamg‘alash), jeton berish (jetonlash) va chip o‘rnatish (elektron identifikatsiya) orqali hayvonlarni aniqlash imkonini beradigan individual raqam berish, shuningdek, hayvonlar to‘g‘risida

ma'lumotlarni elektron axborot tizimiga kiritish va ularga veterinariya pasportini rasmiylashtirish;

identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut – quloq uchun birkalar, jeton, oyoq halqalari, elektron chip va boshqalar;

individual raqam – birkalash, tavro bosish (tamg'alash), jeton berish (jetonlash) va chip o'rnatish (elektron identifikatsiya) orqali hayvonlarni aniqlash imkonini beradigan harflardan va sakkiz xonali raqamdan iborat kod;

ixtisoslashgan so'yish korxonasi – hayvonlarni so'yish uchun zamonaviy mexanizatsiyalashtirilgan yoki avtomatlashtirilgan asbob-uskunalar bilan jihozlangan bino va xonalari mavjud bo'lgan korxonasi;

hayvonlar – jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan asrab, ko'paytiriladigan (boqiladigan) qoramollar, qo'y va echkilar, cho'chqalar, otlar, eshaklar va tuyalar, itlar va mushuklar;

elektron axborot tizimi – hayvonlar hisobi va ularni hisobga qo'yish haqidagi mavjud ma'lumotlar bazasidagi axborotlar majmuasi;

qarovsiz hayvonlar – uy va ma'lum bir joyda saqlanmaydigan, identifikatsiya qilinmagan nazoratsiz qolgan (yurgan) hayvonlar;

hayvonning identifikatsiya raqami – hayvonga uning yashash davri davomida bir marta beriladigan, boshqa hayvonlarda takrorlanmaydigan harfli va raqamli kod;

hayvon egalari – hayvonlarni o'z ehtiyoji yoki tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ko'paytirish, boqish va saqlashni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

hayvonlar hisobi – hayvonlarning yashash davri davomida ularning kelib chiqishi, ko'payishi (ko'paytirilishi) va harakati, shuningdek, hayvonlarda uchraydigan kasalliklarga qarshi profilaktika, tashxis qo'yish va davolash ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar majmui;

hayvonlarni hisobga qo'yish – hayvonlarni identifikatsiya qilish va elektron axborot tizimiga hayvon haqidagi ma'lumotlar, shu jumladan, unga berilgan identifikatsiya raqami va identifikatsiya qilinganligi to'g'risida berilgan hujjatlar yoki tegishli yozuvlar qayd etilgan veterinariya pasporti haqidagi axborotlarni kiritish.

Identifikatsiya qilingan hayvonlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi yagona elektron axborot tizimi orqali shakllantiriladi.

Quyidagi ma'lumotlar elektron axborot tizimiga kiritilishi shart:

hayvonlarning turlari;

hayvonlarning identifikatsiya raqami;

hayvonlarning zoti, jinsi, laqabi (mavjud bo'lganda);

hayvonlarning kelib chiqish (tug'ilgan) joyi;

hayvon egasining familiyasi, ismi va otasining ismi;
hayvon egasi bo'lgan yuridik shaxsning to'liq nomi va joylashgan joyi (pochta manzili);
hayvonlarni saqlash joyi;
hayvonlarning egasi almashganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
hayvonlarning tug'ilgan sanasi;
hayvonlarda amalga oshirilgan profilaktika, tashxis va davolash ishlari to'g'risida ma'lumotlar;
hayvonlarning hisobga qo'yilganligi bo'yicha berilgan hujjatlar to'g'risida ma'lumotlar;
hayvonlarning so'yilgan (nobud bo'lgan, yo'q qilingan) sanasi;
hayvonlarning go'shtidan (jasadidan) iste'mol uchun foydalanilganligi yoki ularning zararsizlantirilganligi (yo'qotilganligi) to'g'risidagi ma'lumotlar.
Elektron axborot tizimi ma'lumotlar bazasiga hayvonning fotosurati ham joylashtirilishi mumkin.
Elektron axborot tizimiga ma'lumotlar tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari tomonidan kiritiladi.

Hayvonlarni identifikatsiya qilish

Hayvonlarni identifikatsiya qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:
tegishli tartibda hayvonlarga individual raqam berish;
elektron axborot tizimiga hayvonlar identifikatsiya qilinganligi to'g'risida ma'lumot kiritish;
veterinariya pasportini rasmiylashtirish.

Hayvonlarga turlariga qarab individual raqam berish quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

Birkalash usuli – bu usul qoramol, qo'y va echkilar, tuyalar, cho'chqalarning qulog'iga birkalarni taqish orqali amalga oshiriladi va u hayvonlarning yashash davri davomida olinmaydi;

Tavro bosish (tamg'alash) usuli – bu usul ot va eshaklarga nisbatan qo'llaniladi, ya'ni, ot va eshaklarning tanasining chap tomoni kurak sohasiga suyuq azot yordamida respublika, viloyat tartib kodi va bel sohasiga individual raqami qo'yiladi. Bunda tavro (tamg'a) o'lchamining balandligi 50 mm, eni 30 mm bo'lishi lozim;

Jetonlash usuli – bu usul it va mushuklarga nisbatan qo'llanilib, jetonlar maxsus bo'yinbog' orqali taqiladi;

Chip o'rnatish (elektron identifikatsiya) usuli – bu usul hayvonlarning barcha turlariga qo'llanilishi mumkin.

Yuqorida nazarda tutilgan usullardagi identifikatsiya raqamlari o‘n ikki belgidan iborat bo‘ladi:

birinchi ikkita belgi – O‘zbekiston Respublikasining harfli (liter) kodi (Standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilot (ISO) kodiga muvofiq);

uchinchi belgi – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar harfli kodi;

to‘rtinchi belgi – hayvonlar turining raqamli kodi;

beshinchi belgidan o‘n ikkinchi belgigacha – sakkiz xonali raqamdan iborat hayvonlarning individual raqami (ot va eshaklardan tashqari). Ot va eshaklarning individual raqamlari to‘rt xonali raqamdan iborat bo‘ladi.

Hayvonlarni birkalash va jetonlash uchun yuqorida keltirilgan identifikatsiya raqamini saqlovchi quloq birkalari va jetonlardan foydalaniladi.

Hayvonlarni identifikatsiya qilish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining harfli kodlari alfavit bo‘yicha, hayvonlar turining raqamli kodi esa tartib raqam bo‘yicha ketma-ketlikda belgilanadi (ilova).

Hayvonlar identifikatsiya qilingandan so‘ng davlat veterinariya xizmatining vakili tegishli qaydnomani rasmiylashtiradi va elektron axborot tizimiga kiritish uchun tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limiga taqdim etadi.

So‘yilgan (nobud bo‘lgan, yo‘q qilingan) hayvonlarning, shuningdek, tegishli nizomda nazarda tutilgan holatlarda veterinariya pasporti va identifikatsiya raqamini saqlovchi atributlar tegishli tuman (shahar) davlat veterinariya xizmati tomonidan yo‘q qilinadi.

Hayvonlar egasi almashganda, shuningdek, bir hududdan boshqa hududga ko‘chirilganda identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut almashtirilmaydi va bu bo‘yicha elektron axborot tizimi hamda veterinariya pasportiga tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.

Import qilingan zotdor hayvonlarning naslliligini tasdiqlovchi hujjatlari bo‘lgan taqdirda, ularga ushbu hayvonlarni eksport qilayotgan davlatda berilgan identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut o‘zgartirilmaydi.

Import qilingan hayvonlar belgilangan tartibda karantin tekshiruvidan o‘tgandan so‘ng ular to‘g‘risidagi tegishli ma‘lumotlar ushbu Nizomga asosan elektron axborot tizimiga kiritiladi hamda veterinariya pasporti rasmiylashtiriladi.

Boqish va ko‘paytirish uchun import qilingan hayvonlarni naslli hayvon ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmagan taqdirda ushbu Nizom talablari asosida identifikatsiya qilinadi.

So‘yish maqsadida import qilingan hayvonlar identifikatsiya qilinmaydi. Ushbu hayvonlar keltirilgan vaqtdan boshlab etti kalendar kunida so‘yilishi shart.

Birka (jeton) yo'qotilganda yoki unga shikast etganligi sababli identifikatsiya raqamini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda, hayvonlarning identifikatsiya raqamlariga elektron axborot tizimidagi boshqa hayvonlarning identifikatsiya raqamlari va veterinariya pasportlari bilan solishtirish orqali besh kun muddatda aniqlik kiritiladi. Bu davrda hayvonni sotish (hadya qilish), almashtirish va so'yish (so'yishga topshirish) taqiqlanadi. Bu hayvonlarni qayta identifikatsiya qilish ushbu Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Hayvonlarning egalaridan identifikatsiya qilish xizmatlari uchun to'lov undiriladi. To'lov miqdori va shartlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Identifikatsiya raqamini saqlovchi quloq birkalari, jetonlar turlari va me'yorlari

Hayvonlar uchun issiq va sovuqqa chidamli elastik polimer materiallardan tayyorlangan quloq birkasi tavsiya etiladi.

Hayvon turiga qarab quloq birkasi turli xil ko'rinish, rang va shakllarda bo'lishi mumkin.

Qoramollar uchun quloq birkasining plastmassa turi quyidagi hajmda: eni – 57 mm, balandligi – 77 mm.

Tuyalar uchun: eni – 40 mm, balandligi – 45 mm.

Qo'y va echkilar uchun: eni – 37 mm, uzunligi – 41 mm.

Cho'chqalar uchun tugma ko'rinishidagi birkalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, diametri 25 mm.

Quloq birkalari hayvonlarning quloq'iga birkalarni o'rnatish texnikasiga muvofiq o'rnatiladi.

Uy hayvonlari uchun issiq va sovuqqa chidamli elastik polimer va alyuminiy materiallardan tayyorlangan jeton tavsiya etiladi.

Uy hayvonlari uchun diametri 30 mm tugmali jetondan foydalanish maqsadga muvofiq.

**Hayvonlarni identifikatsiya qilish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi,
viloyatlar va Toshkent shahar harfli kodlari**

Harfli kodlar	Hudud nomi
A	Qoraqalpog‘iston Respublikasi
B	Andijon viloyati
C	Buxoro viloyati
D	Jizzax viloyati
E	Qashqadaryo viloyati
F	Navoiy viloyati
G	Namangan viloyati
H	Samarqand viloyati
K	Surxondaryo viloyati
L	Sirdaryo viloyati
M	Toshkent viloyati
N	Farg‘ona viloyati
O	Xorazm viloyati
P	Toshkent shahri

Hayvonlar turining raqamli kodi
Qoramollar – 1
Qo‘y va echkilar – 2
Tuyalar – 3
Otlar – 4
Eshaklar – 5
Cho‘chqalar – 6
Itlar – 7
Mushuklar – 8

Identifikatsiya qilingan hayvonlarga veterinariya pasportini rasmiylashtirish

Hayvonlarga identifikatsiya raqami berilganidan so'ng uch ish kuni mobaynida davlat veterinariya xizmatining vakili hayvon egasiga tegishli shakldagi veterinariya pasportini rasmiylashtiradi.

Saqlanayotgan (boqilayotgan) har bir bosh hayvonga veterinariya pasporti rasmiylashtiriladi (qo'y va echkilarga guruh usulida veterinariya pasporti rasmiylashtirilishi mumkin).

Veterinariya pasportiga hayvonlarning identifikatsiya raqami (yangi tug'ilgan hayvonlar bilan birga uni tuqqan hayvon to'g'risidagi ma'lumotlar ham kiritiladi), hayvonlarning kasalliklarga qarshi profilaktikasi va ularni davolash ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.

Veterinariya pasportiga yangi ma'lumotlar veterinariya tadbirlari o'tkazilgan davrda (profilaktika, tashxis qo'yish va davolash tadbirlari) hamda hayvon egasi o'zgarganda va boshqa holatlarda kiritib boriladi.

Veterinariya pasporti tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i tomonidan imzolaniadi va muhr bosiladi.

Veterinariya pasporti yo'qolganda yoki yaroqsiz holga kelib qolganda uning dublikati beriladi.

Veterinariya pasporti yo'qolganligi va yaroqsiz holga kelganligi to'g'risidagi ariza (yaroqsiz holga kelgan taqdirda veterinariya pasporti bilan birga) davlat veterinariya xizmatining vakiliga taqdim qilinadi va yo'qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan veterinariya pasporti hayvon egasi tomonidan ariza berilgan kundan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Dublikat berish to'g'risida ariza taqdim qilingan kundan boshlab uch kun ichida davlat veterinariya xizmatining vakili hayvon egasiga yuqori qismining o'ng burchagiga «DUBLIKAT» so'zi yozilgan yangi veterinariya pasportini rasmiylashtirib berish.

Nazorat savollari:

1. Identifikatsiya raqamini saqlovchi quloq birkalari, jetonlar turlari va me'yorlari ahamiyati va turlarini ayting?
2. Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni hisobga olish, hisobdan chiqarish va saqlash tartibi to'g'risidagi nizomi?
3. Identifikatsiya qilingan hayvonlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi yagona elektron axborot tizimi orqali shakllantirilishi qanday amalga oshiriladi?
4. Chip o'rnatish (elektron identifikatsiya) usuli qanday amalga oshiriladi?
5. Davolash ishlarini qanday tashkil etiladi?

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. Davlatov R.B., Norqobilov B.T., Qurbonov Sh.X. Veterinariya ishini tashkil etish va iqtisodi. Darslik, Samarqand, 2019.
2. Abduraxmonov T.A., Davlatov R.B. Veterinariya ishini tashkillashtirish va uning iqtisodi. Darslik, Zarafshon nashriyoti, 2004.

Xorijiy adabiyotlar

1. James S. Gaynor., William W. Muir. Handbook of Veterinary Pain Management. 2014 year.
4. Никитин И.Н. Организация и экономика ветеринарного дела. Учебник, Издательство «Лань», 2014 год.
5. Никитин И.Н. Организация ветеринарного дела. Учебник, Издательство «Лань», 2021 год.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017 yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017 yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017 yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son Farmoni. Toshkent, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori. Toshkent, 2017 yil.
6. Ўзбекистон Республикасининг маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. Тошкент “Адолат”, 2010 йил.
7. Ўзбекистон Республикасининг “Ветеринария тўғрисида”ги қонуни. Тошкент, 2018 йил.

Internet va Ziyonet saytlari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.lex.uz
3. www.vetgov.uz
4. www.vetas.uz
5. www.agro.uz
6. www.stat.uz
7. www.labirint.ru

